

O'zDSMIda yig'ilish bo'lib o'tdi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida yig'ilish bo'lib o'tdi. Tanqidiy-tahliliy ruhda o'tgan yig'ilishni filologiya fanlari doktori, professor, institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev olib bordi.

E'tirof etildiki, barcha rahbarlar dunyo miqyosida bo'layotgan ishlardan xabardor bo'lishi va ulardan tegishli xulosa chiqarishlari lozim. Dars berish jarayonlari, talabalarning o'quv mashg'ulotlaridagi ishtiroki "Talim to'g'risida"gi qonun asosida tashkil etilishi shart.



Barcha institutning ichki tartib qoidalariga amal qilishi lozim. Buning uchun fakultetlar dekanlari, guruhlar rahbarlari mas'uldir. Kelgusi o'quv yilidan boshlab o'qituvchilarni ishga qabul qilish ularning joriy o'quv yilida yig'adigan reyting bali asosida amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchining ilmiy-innavatsion, ma'naviy-ma'rifiy, o'quv jarayonlaridagi faoliyati asos qilib olinadi. Kelgusi yildan oliy ta'lim to'liq raqamli tizimga o'tiladi. Shundan kelib chiqilgani holda, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bu borada amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.



Yig'ilishda shuningdek, institutning kelgusi o'quv yilidan kredit modul tizimiga o'tishi, ilmiy salohiyatini yanada oshirish singari qator masalalar ko'rib chiqildi. O'quv jarayonida ko'zga tashlanayotgan kamchiliklar tanqid qilindi va ularni bartarif etish bo'yicha mas'ullarga aniq topshiriqlar berilib, muddatlar belgilandi. Navbatdagi masala yoshlarni turli yot g'oyalar domiga tushib qolmasligi uchun ularni milliy istiqloq g'oyasi, vatanparvarlik ruhida kamol topishiga xizmat qiluvchi tugaraklar tashkil etishga e'tibor qaratildi.



Shulardan kelib chiqilgani holda respublikamiz bo'yicha kamida 18 turdagi tugaraklarni tashkil qilish vazifasi o'rtaga tashlandi. Ishtirokchilar tomonidan uni amalga oshirish mexanizmi haqida fikrlar bildirildi. Ushbu oliy o'quv yurtini bitirgan talabalar bandligi ta'minlash, ularni foydali mehnatga jalb etish bo'yicha mas'ullarning axboroti tinglandi va mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

Matbuot kotibi